

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI QARSHI FILIALI**

SAIPNAZAROV JONIBEK MUXAMMADIYEVICH

**KOSSERA MUHITIDAN IBORAT TO‘LQIN O‘TKAZGICHLARDA
GARMONIK TO‘LQINLARNI TARQALISH XUSUSIYATLARI**

01.02.04–Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-
mathematical sciences**

Saipnazarov Jonibek Muxammadiyevich

Kossera muhitidan iborat to'liqin o'tkazgichlarda garmonik to'liqlarni
tarqalish xususiyatlari..... 3

Саипназаров Жонибек Мухаммадиевич

Особенности распространения гармонических волн в волноводах,
состоящих из среды Коссера..... 19

Saipnazarov Jonibek Mukhammadievich

Features of the propagation of harmonic waves in waveguides consisting of
a Cossera medium..... 37

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 41

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI QARSHI FILIALI**

SAIPNAZAROV JONIBEK MUXAMMADIYEVICH

**KOSSERA MUHITIDAN IBORAT TO‘LQIN O‘TKAZGICHLARDA
GARMONIK TO‘LQINLARNI TARQALISH XUSUSIYATLARI**

01.02.04–Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/FM881 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Buxoro muhandislik-texnologiya institut veb-saytida (www.bmti.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar :	Safarov Ismoil Ibroximovich fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Mardonov Botir Mardonovich fizika-matematika fanlari doktori, professor Mirzayev Ibraxim fizika-matematika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Namangan muhandislik-qurilish instituti

Dissertatsiya himoyasi 2025 yil 5 aprel kuni soat 09⁰⁰ da Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 raqamli Ilmiy kengash majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100118, Buxoro shahar, Qayum Murtazoyev ko'chasi 15 uy. Tel.: (+998-65) 223-78-84; faks: (+99865) 223-79-72, e-mail: bmti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 459 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100118, Buxoro shahar, Qayum Murtazoyev ko'chasi 15 uy. Tel.: (+99865) 223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 14 mart kuni tarqatildi.

(2024 yil 4 dekabr № 10 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.X. Teshayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, fizika-matematika fanlari doktori (DSc)

Z.I. Boltayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

M.Z. Sharipov

Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy seminar raisi, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda elastik va qovushqoq toshli muhitlardan tashkil topgan to'liq o'tkazgichlarda to'liq tarqalishi muammosini o'rganish bo'yicha yuzdan ortiq ilmiy-tadqiqot muassasalarida ilmiy tadqiqotlar olib borishda gruntli muhit xossalari qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida yer usti va yer osti inshootlarining har xil kvazistatik va dinamik seysmik to'liqlar ostida bo'lganligi sababli, ularning mustahkamligini ta'minlash va inshoot konstruksiyalarining tarkibiy qismi bo'lgan elastik va qovushqoq – elastik elementlarda hosil bo'ladigan dinamik kuchlanishlar va deformatsiyalarni o'rganish maqsadida, ularda to'liq tarqalishining dinamikasini va usullarini amaliyotga joriy etishni taqazo etadi. Shu jihatdan globallashuv va axborot almashish jarayonining intensivlashuvi sharoitida yer usti va yer osti inshootlari konstruksiyalarida samarali vositalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda yer usti va yer osti inshootlari zilzilabardoshligi sohasida qo'llaniladigan materiallarning, shu jumladan ko'p qatlamli murakkab tarkibga va fizik xossalarga ega bo'lgan muhitlarga va plastinkasimon konstruksiyalarning mustahkamligini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada materialning qovushqoq-elastiklik xususiyatini hisobga olib, dinamik masalalar yechish borasida sezilarli natijalarga erishildi, xususan, inshootlarni zilzila bardoshligini oshirishda gruntli muhitda seysmik to'liqlar tarqalishi natijasida hosil bo'ladigan kuchlanishlar va ularning momenlarini hisobga olib, inshootlarning dinamik kuchlanganlik-deformatsiya holatini baholashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda to'liq tarqalish jarayonida hosil bo'ladigan mikrotebranishlarning salbiy ta'sirini kamaytirib detal va qurilmalarning mustahkamligini oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, noyob fizik va mexanik xususiyatli konstruksion materiallar uchun zamonaviy texnika va texnologiyalar keng qo'llanilayotgani sababli muhit bilan aloqada bo'lgan plastinkasimon va silindrik qovushqoq-elastik qobiqlarda to'liq tarqalishi xususiyatlarini o'rganish metodikasini yaratish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida, jumladan, "...ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash,..."¹ vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, deformatsiyalanuvchi muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lgan uch qatlamli plastinkalarning tebranishlari masalalarida rezonans sohasidagi titrashlarni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyuldagi PQ-4794-sonli "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori, "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4708-sonli 2020-yil 7-maydagi Prezident Qarori hamda mazkur faoliyatlarga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni

amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Matematika, mexanika, inshootlar seysmodinamikasi va informatika» hamda XIV. «Seysmologiya, binolar va inshootlar seysmik xavfsizligi va qurilish» ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Simmetrik bo‘lmagan elastiklik nazariyasining (Kossera muhiti) rivojlanishi o‘tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Simmetrik bo‘lmagan elastiklik nazariyasida to‘lqin elastik muhit bilan kontaktda bo‘lgan jismlarning dinamik kuchlanganlik-deformatsiyasi muammosini ilmiy nuqtai-nazardan quyidagi xorijiy davlat olimlari Novaskiy V., Koster V.T., Aero E.L., Kuvshinskiy YE.V., Mindlin R.D., Tirsten G.F., Tupin R.A., Kunin I.A., Palmov V.A., Lurye A.I., Pobedre B.YE., Matveyenko V.P., Kuleshu M.A., Brovko G.A., Rajneesh Kumar, Jun Liu, Nistor I., Suiker A.S. va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Respublikamiz olimlari tomonidan gruntli muhitda to‘lqin tarqalishi va muhitni kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatlarini o‘rganish va baholash bo‘yicha Raxmatulin X.A., O‘rozboyev M.T., Kabulov V.K., Rashidov T.R., Muborakov Y.N., Mirsaidov M.M., Mardonov B.M., Sultonov K.S., Mirzayev I.K., Abdukadirov S., Xudoynazarov X., Yuldashov SH.S., Safarov I.I. va boshqa olimlar ish olib borishgan. Ular muhit bilan aloqada bo‘lgan plastinkasimon, silindrik yoki sferik ko‘rinishdagi jismlarda to‘lqin yuklanishi masalalarini hisoblash usullarini rivojlantirishga o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shishgan. Hozirgi vaqtda muhitning qovushqoqlik xususiyatlarini hamda bir jinsli bo‘lmagan xususiyatlarini hisobga olgan holda xos to‘lqinni Kossera muhitida tarqalish xususiyatlarini va dinamik holatini baholash uslublari to‘la ishlab chiqilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan

Tadqiqotning maqsadi qovushqoq-elastik Kossera muhitidan iborat yarim tekislik, qatlam va ikki qatlamli to‘lqin o‘tkazgichlarda xos to‘lqin tarqalishi hamda so‘nishi, muhitning kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holati va hosil bo‘ladigan rezonans holatini baholashga qaratilgan hisoblash metodikasi va dasturini ishlab chiqish, analitik va sonli hisoblash usullarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qovushqoq-elastik Kossera muhitidan iborat to‘lqin o‘tkazgichlarda to‘lqin tarqalishi va so‘nish xususiyatlarini o‘rganish masalalarini matematik qo‘yish, yechish metodikasi, algoritmini ishlab chiqish;

qovushqoq-elastik Kossera muhitidan iborat yarim tekislik sirtida Reley va ikki muhit kontaktda Stounli to‘lqinlar tarqalish tezligi hamda ularni so‘nishiga solishtirma baho berish;

dissipativ bir jinsli bo‘lmagan ikki qatlamli qovushqoq - elastik Kossera muhitidan iborat uzun to‘lqin o‘tkazgichlarda kompleks faza tezligining bir nechta modasini to‘lqin soniga nisbatan o‘zgarishiga solishtirma baho berish hamda olingan natijalar asosida to‘lqinning so‘nishiga parametrik baho berish;

ideal elastik muhitdan farqli qovushqoq-elastik Kossera muhitida paydo bo‘ladigan yangi to‘lqinning faza tezligi va so‘nishini tadqiq qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida qovushqoq-elastik yarim tekislik, qatlam va ikki qatlamli Kossera muhitidan iborat bo'lgan jism (yoki to'ldiruvchi o'tkazgich) olingan.

Tadqiqotning predmeti garmonik to'ldiruvchi ta'sirida deformatsiyalanuvchan ikki qatlamli qovushqoq-elastik to'ldiruvchi o'tkazgichning materiallarning reologik xossalarini e'tiborga olgan holda kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holati va dinamik xarakteristikalarini aniqlash jarayonlarini tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida deformatsiyalanuvchan qattiq jismlar mexanikasi va qurilish mexanikasi usullaridan, hisoblash matematikasi, matematik modellashtirish, dasturlash usullari, xususiylas hosilali differensial tenglamalarni yechish uchun "muzlatish", o'zgaruvchilarni ajratish, Gauss, Laplas va chekli ayirmalar usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

birinchi marta qovushqoq-elastik Kossera muhitidan iborat ko'p qatlamli to'ldiruvchi o'tkazgichlarda to'ldiruvchi tarqalishining integro-differensial tenglamalari elastiklik nazariyasining Nav'e va Lamé tenglamalarini chiqarish usuliga asoslanib olindi to'ldiruvchi dinamikasi nazariyasining usullari yordamida yechish metodikasi va algoritmi ishlab chiqilgan;

qovushqoq-elastik Kossera muhitidan iborat yarim tekislik sirtida Reley va ikki muhit kontaktida Stouli to'ldiruvchilarining tarqalish tezliklari va so'nishini klassik muhitdan farqli chastotaga bog'liqligi, ya'ni, yuqori chastotalar uchun kuchayib borishi samarasi topilgan va solishtirma baho berilgan;

dissipativ bir jinsli bo'lmagan ikki qatlamli qovushqoq - elastik Kossera muhitidan iborat uzun to'ldiruvchi o'tkazgichlarda kompleks faza tezligi modalarini to'ldiruvchi soniga nisbatan o'zgarishi monoton bo'lmagan funksiyalar orqali ifodalaniishi sonli natijalarni tahlili asosida topilgan va shunga ko'ra to'ldiruvchining so'nishini ifodalovchi parametrga baho berilgan;

qovushqoq-elastik Kossera muhiti zaralarida ta'sir etadigan ichki kuchlanishlar va momentlarni hisobga olish, to'ldiruvchi tarqalishida klassik elastik muhitdan farqli ikkita dispersion munosabat mavjud bo'lishi to'ldiruvchi nazariyasining usullari asosida topilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

garmonik to'ldiruvchi ta'siridagi deformatsiyalanuvchan yarim tekislik bilan kontaktda bo'lgan qatlamda hosil bo'ladigan to'ldiruvchi tarqalish chastotasi va so'nish koeffitsiyentlariga solishtirma baho berilgan;

garmonik to'ldiruvchi ta'sirida bo'lgan ikki qatlamli to'ldiruvchi o'tkazgichda to'ldiruvchi tarqalish chastotasi va so'nish koeffitsiyentlariga solishtirma baho berilgan;

bo'ylama va ko'ndalang to'ldiruvchi ta'siri ostida bo'lgan toshli muhitda klassik elastik muhitdan farqli yangi to'ldiruvchining tarqalish tezligi va rezonans hosil qilish xususiyatlariga baho berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi chegaraviy shartlarning korrekt qo'yilishi, keltirib chiqarilgan matematik ifodalarning qat'iyligi, asoslangan yechish usullaridan tizimli foydalanilganligi, yechimlarning aniqliligini baholashda boshqa tadqiqotchilar yechimlari bilan taqqoslanganligi va ularning natijalariga mos tushganligi hamda amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sifatida deformatsiyalanuvchan muhit bilan kontaktda bo'lgan qatlamli muhitda hosil bo'ladigan to'ldiruvchi dinamikasi va difraksiyasi nazariyasining rivojlanishiga hissa qo'shish hamda takomillashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati. Ikki katlamli qovushqoq elastik Kossera muhitidan iborat bo‘lgan to‘lqin o‘tkazgichlarda to‘lqin tarqalishi va tebranishlar formasini qurishga mo‘ljallangan amaliy dasturlar kompleksini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Sirt to‘lqinlarini qovushqoq-elastik Kossera yarim tekislikda tarqalishini kompleks chastotaga bog‘liq tadqiq qilish, seysmik to‘lqinlarni tarqalishi va inshootlarga ta‘sir qilishini, hamda hosil bo‘ladigan kuchlanishlar va deformatsiyalarni optimallashtirishga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kossera muhitidan iborat to‘lqin o‘tkazgichlarda garmonik to‘lqinlarni tarqalish xususiyatlari tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

qobiqdagi zo‘riqish momentlarini hisoblash metodikasi va algoritmidan Urganch davlat universitetida 2017-2020 yillarda bajarilgan OT-F4-04(05) “Material nochizikli evolyutsion tenglamalarni yechishni spektral usulini qo‘llash. Yurak tomir sistemasi biomexanikasi” mavzusidagi fundamental loyihasi (Urganch davlat universitetining 2024 yil 26 sentabrdagi 04-04/01-11/4072-sonli ma‘lumotnomasi) foydalanilgan. Natijada, yuqori qovushqoq elastik qon tomirlardan suyuqlik oqishi tufayli devorlarda hosil bo‘ladigan moment kuchlanishlarini hisoblash imkoni yaratilgan;

quvur sirtida va muhitda hosil bo‘ladigan xos (erkin) to‘lqinning tarqalishida hosil bo‘ladigan rezonans sohalarini aniqlash usullaridan Toshkent kimyo-texnologiya institutida 2016-2020 yillarda bajarilgan OT-F4-01 raqamli “Qovushqoq suyuqlik oquvchi ko‘p qatlamli kompozit quvurlar egri chiziqli bo‘laklarining harorat va dinamik yuklanishlar ta‘sirida chiziqli bo‘lmagan dinamik kuchlanish-deformatsiya holatini o‘rganish usullarini ishlab chiqish va nazariyasini rivojlantirish” mavzusidagi fundamental ilmiy-texnikaviy loyihada (Toshkent kimyo-texnologiya institutining 2024 yil 14 sentabrdagi № 1/04-2380-sonli ma‘lumotnomasi) foydalanilgan. Natijada, ko‘p qatlamli kompozit muhitda to‘lqin tarqalishida rezonans sohalarini oldindan aniqlash va baholash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy - amaliy anjumanlarida ma‘ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zaruriyati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari shakllantirilgan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobatyasi, chop etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Qovushqoq-elastik Kossera muhitida garmonik to‘lqinlarni tarqalishiga bag‘ishlangan adabiyotlar tahlili**” deb nomlangan birinchi bobi uchta paragrafdan iborat bo‘lib, birinchi paragrafda momentsiz elastik muhit va jismlarga to‘lqin tarqalish masalasiga bag‘ishlangan ishlarning qisqacha tahlili keltirilgan. Simmetrik bo‘lmagan elastiklik nazariyasining umumlashgan nazariyasi 1910-yil aka-uka Kossalar tomonidan ishlab chiqilgan. Klassik elastiklik nazariyasida muhitning deformatsiya holati nuqtaning deformatsiyasi yoki ko‘chishi bilan baholanadi. Kossalar tomonidan tavsiya etilgan modelga ko‘ra, har bir nuqtani ko‘chishi ortogonal uchburchak bilan ifodalanadi, hamda muhitning har bir nuqtasi absolyut qattiq jismdan iborat deb qaraladi. Bu model olinganda muhitda kuchlanish tenzoridan tashqari, moment kuchlanishlar tenzori paydo bo‘lib, tenzorlar osesimmetrik bo‘lmaydi. Bu nazariyani rivojlanishida Kossalardan keyin Trusdel, Kuvshinskiy, Aero, Palmov, Novaskiy, Tupin va boshqalar katta hissa qo‘shgan. Olimlar tomonidan bu modelni soddalashtirilgan hollari tavsiya etilgan, ulardan biri psevdokontinuum Kossara deb atalgan. Ular bu holda buralish vektorini $\vec{\theta} = \frac{1}{2} \text{rot} \vec{u}$ deb olgan. Bu holatda ham


qo‘yilgan masala klassik elastiklik nazariyaga olib kelingan. Ikkinchi paragrafda Kossara muhitidan iborat bo‘lgan yarim tekislikda erkin (yoki xos) to‘lqin tarqalishi masalasini o‘rganishga bag‘ishlangan adabiyotlarning qisqacha tahlili keltirilgan. Uchinchi paragrafda gruntlar yoki quduqni o‘rab turuvchi muhitda to‘lqin tarqalishi masalasini o‘rganishga bag‘ishlangan adabiyotlar tahlili keltirilgan. Tahlillar umumlashtirilib xulosa keltirilgan. Bu xulosalar bo‘yicha qovushqoq-elastik Kossara muhitida to‘lqin tarqalishini ifodalovchi dispersion tenglama topilmagan, hamda yechish uslubiyoti va algoritmi ishlab chiqilmagan; qovushqoq-elastik momentli muhitdagi silindrik qobiqda to‘lqin tarqalish tenglamasi umumiy holda topilmagan, yechish uslubiyoti va algoritmi ishlab chiqilmagan; To‘lqin tarqalishini ifodalovchi chegaraviy masala va undan kelib chiquvchi spektral masala qo‘yilmagan, yechish metodikasi va algoritmi ishlab chiqilmagan; adabiyotlar tahlili natijalaridan kelib chiqadiki momentli nazariya (yoki Kossara) muhitida zarralarni tebranishlarini o‘rganishga chuqur ahamiyat berilmagan. Bu xulosalar asosida dissertatsiya ishining maqsadi belgilangan va shu maqsadga muvofiq vazifalar qo‘yilgan.

Dissertatsiyaning “**Kossara muhitidan iborat to‘lqin o‘tkazgichlarda garmonik to‘lqinlar tarqalish masalalarini qo‘yilishi, yechish metodikasi va algoritmi**” deb nomlangan ikkinchi bobi to‘rtta paragrafdan iborat bo‘lib, bu bobda qovushqoq elastik qatlamli tekis muhitda erkin to‘lqinlarining tarqalishi masalasining qo‘yilishi, yechish metodikasi va algoritmi keltirilgan. Ixtiyoriy A silliq sirt bilan chegaralangan soha berilgan bo‘lsin. dA - kichik element, $\vec{p}dA$ - orqali kuch vektorini va $\vec{m}dA$ - moment vektori bilan belgilaymiz. X - hajmiy kuch va Y - hajmiy moment vektorlarini belgilaymiz. Muhitdan ajratib olingan V hajmiy elementni harakat differensial tenglamasi variatsion prinsip asosida quyidagicha olingan:

$$\int_A p_i dA + \int_V X_i dV = 0, \quad (1)$$

$$\int_A (\epsilon_{ijk} x_i p_k + m_i) dA + \int_V (\epsilon_{ijk} x_i X_k + Y_i) dV = 0; i, j, k = 1, 2, 3.$$

Bu (1) tenglamalar uchun muhit modeli 1- rasmda keltirilgan.



1-rasm. Kossera muhiti modeli

$$p_i(n) = \sigma_{ji}n_j, m_i(n) = \mu_{ji}n_j. \quad (2)$$

Yuqorida keltirilgan (1) tenglamani birinchisidan quyidagi tenglamani olamiz

$$\int_V (\sigma_{ji,j} + X_i) dV = 0. \quad (3)$$

(1) tenglamani ikkinchisidan quyidagi tenglamalar sistemasini olamiz

$$\int_V [\epsilon_{ijk} x_j (\sigma_{ik,i} + X_k) + \epsilon_{ijk} \sigma_{ik} + \mu_{ij,j} + Y_i] dV = 0. \quad (4)$$

Oxirgi olingan (3) va (4) tenglamalardan quyidagi differensial tenglamalar sistemasiga olib kelinadi

$$\begin{aligned} \sigma_{ji,j} + X_i &= \rho \ddot{u}_i, \\ \epsilon_{ijk} \sigma_{jk} + \mu_{ij,j} + Y_i &= j \ddot{\theta}_i. \end{aligned} \quad (5)$$

Bu yerda ρ - materialning zichligi. Ixtiyoriy A silliq sirt bilan chegaralangan soha berilgan bo'lsin (1-rasm). Kuchlanishlar va deformatsiyalar orasidagi bog'lanish yoki asosiy fizik munosabat quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\begin{aligned} \sigma_{ij} &= 2\tilde{\mu}\gamma_{(ij)} + 2\tilde{\alpha}\gamma_{(ij)} + \tilde{\lambda}\gamma_{kk}\delta_{ij}, \\ \mu_{ij} &= 2\tilde{\gamma}\chi_{(ij)} + 2\tilde{\epsilon}\chi_{(ij)} + \beta\chi_{kk}\delta_{ij}, \end{aligned}$$

bunda $\tilde{\mu}_k, \tilde{\lambda}_k, \tilde{\alpha}_k, \tilde{\beta}_k, \tilde{\gamma}_k, \tilde{\epsilon}_k$ - mos ravishda Lamening operator koefitsiyentlari va Kossera muhiti doirasidagi elastik operator parametrlari bo'lib quyidagicha ko'rinishga ega:


$$\begin{aligned} \tilde{\gamma}_k f(t) &= \gamma_{k0} \left[f(t) - \int_{-\infty}^t R_{k\gamma}(t-\tau) f(\tau) d\tau \right], \tilde{\epsilon}_k f(t) = \epsilon_{k0} \left[f(t) - \int_{-\infty}^t R_{k\epsilon}(t-\tau) f(\tau) d\tau \right], \\ \tilde{\lambda}_k f(t) &= \lambda_{k0} \left[f(t) - \int_{-\infty}^t R_{k\lambda}(t-\tau) f(\tau) d\tau \right], \tilde{\mu}_k f(t) = \mu_{k0} \left[f(t) - \int_{-\infty}^t R_{k\mu}(t-\tau) f(\tau) d\tau \right], \\ \tilde{\alpha}_k f(t) &= \alpha_{k0} \left[f(t) - \int_{-\infty}^t R_{k\alpha}(t-\tau) f(\tau) d\tau \right], \tilde{\beta}_k f(t) = \beta_{k0} \left[f(t) - \int_{-\infty}^t R_{k\beta}(t-\tau) f(\tau) d\tau \right]. \end{aligned} \quad (6)$$

u yerda $\mu_{k0}, \lambda_{k0}, \alpha_{k0}, \beta_{k0}, \gamma_{k0}, \epsilon_{k0}$ - qovushqoq elastik Kossera muhiti uchun oniy elastik parametrlar, $R_{k\gamma}(t-\tau), R_{k\epsilon}(t-\tau), R_{k\lambda}(t-\tau), R_{k\mu}(t-\tau), R_{k\alpha}(t-\tau), R_{k\beta}(t-\tau)$ - relaksatsiya yadrolari. Birinchi paragrafida dinamik masalalarni qo'yilishi va umumiy munosabatlar keltirilgan. Ko'pincha statsionar masalalar uchun yuqorida (6) munosabat ham qovushqoqlikni kompleks elastiklik modeliga olib kelinadi. Bu modellar statsionar jarayonlar uchun ekvivalent bo'ladi. Bu paragrafda Kossera muhitidan iborat qovushqoq-elastik chekli qatlamli muhit (yoki konstruksiya)dagi dinamik jarayonlarni o'rganishdagi umumiy munosabatlarni keltirib o'tamiz.

Faraz qilaylik qatlamli muhit dekart koordinatalar sistemasida berilgan bo'lsin. Shu muhitga to'lqin tarqalish masalalarini ko'ramiz. Hisob sxemalari 2 -rasmga

keltirilgan. Asosiy maqsad qatlamli qovushqoq - elastik Kossera muhitda erkin to'liqlarni tarqalishini o'rganishdan iborat. Kossera muhiti harakat differensial tenglamasi quyidagicha olingan :

$$\begin{aligned} (2\tilde{\mu}_k + \tilde{\lambda}_k) \text{grad div } \vec{u} - (\tilde{\mu}_k + \tilde{\alpha}_k) \text{rot rot } \vec{u} + 2\tilde{\alpha}_k \text{rot } \vec{\theta} + \vec{X}_k &= \rho_k \ddot{\vec{u}}, \\ (\tilde{\beta}_k + 2\tilde{\gamma}_k) \text{grad div } \vec{\theta} - (\tilde{\gamma}_k + \tilde{\varepsilon}_k) \text{rot rot } \vec{\theta} + 2\tilde{\alpha}_k \text{rot } \vec{u} - 4\tilde{\alpha}_k \vec{\theta} + \vec{Y}_k &= j_k \ddot{\vec{\theta}}, \end{aligned} \quad (7)$$



2-rasm. Yarim tekislikda o'rnatilgan ko'p qatlamli muhit

ρ_k - materialning zichligi, j_k - inersiya momenti zichligi, \vec{X}_k - hajmiy kuch zichlik vektori, \vec{Y}_k - hajmiy moment zichlik vektori. Agar Kossera muhitidan tashkil topgan yarim tekislikda erkin to'liqin yoki Reley to'liqinini tarqalishi ko'rilsa, u holda chegaraviy shartlar (kuchlanishlar va moment kuchlanishlari) quyidagicha topiladi, ya'ni kuchlanishlar va moment kuchlanishlari nol bo'ladi

$$\begin{aligned} \sigma_{zx} = 0, \sigma_{zy} = 0, \sigma_{zz} = 0, \\ \mu_{zx} = 0, \mu_{zy} = 0, \mu_{zz} = 0. \end{aligned} \quad (8)$$

Bu yerda z o'qi tekislikka tik yo'nalgan, x va y o'qlari gorizontall tekislik bo'ylab yo'nalgan. Agar ikkita yarim tekislik qattiq mahkamlangan bo'lsa yoki birlashgan bo'lsa, u holda kontaktda qattiq mahkamlanganlik sharti qo'yiladi (2 -rasm)

$$\begin{aligned} \sigma_{zx1} = \sigma_{zx2}, \sigma_{zy1} = \sigma_{zy2}, \sigma_{zz1} = \sigma_{zz2}, \\ \mu_{zx1} = \mu_{zx2}, \mu_{zy1} = \mu_{zy2}, \mu_{zz1} = \mu_{zz2}, \\ u_{x1} = u_{x2}, u_{y1} = u_{y2}, u_{z1} = u_{z2}, \\ W_{x1} = W_{x2}, W_{y1} = W_{y2}, W_{z1} = W_{z2}. \\ \sigma_{zx1} = \sigma_{zx2}, \sigma_{zy1} = \sigma_{zy2}, \sigma_{zz1} = \sigma_{zz2}, \\ u_{x1} = u_{x2}, u_{y1} = u_{y2}, u_{z1} = u_{z2}, \\ \mu_{zx2} = 0, \mu_{zy2} = 0, \mu_{zz2} = 0, \\ W_{x2} = 0, W_{y2} = 0, W_{z2} = 0. \end{aligned} \quad (9)$$

Bunday ko'p qatlamli muhit qovushqoq-elastik Kossera muhiti modelini tavsiya qilinishi yangi modelni, ya'ni qovushqoq-elastik Kossera muhitini tavsiyasi bo'ladi. Asosiy maqsad tavsiya etilgan model asosida yangi masalalar yechish, olingan sonli natijalarni klassik elastiklik nazariyasi masalalari bilan solishtirishdan iborat. Ikkinchi paragrafda tekis masalaga keladigan jismlarda to'liqin tarqalish masalasini yechish metodikasi va algoritmi keltirilgan. Qatlamli uzun plastinkasimon qovushqoq-elastik (dissipativ bir jinsli va bir jinsli bo'lmagan) Kossera muhitidan iborat to'liqin o'tkazgichlarda garmonik xos to'liqlarni tarqalishi o'rganiladi. Muzlatish usulini

qo'llash natijasida yuqorida olingan (7) integro-differensial tenglama kompleks koeffitsiyentli xususiy hosilali tenglamaga keladi.

$$\begin{cases} (2\bar{\mu}_n + \bar{\lambda}_n) \text{grad div} \bar{u}_n - (\bar{\mu}_n + \bar{\lambda}_n) \text{rot rot} \bar{u}_n + 2\bar{\alpha}_n \text{rot} \bar{\theta}_n + \bar{X}_n = \rho_n \frac{\partial^2 \bar{u}_n}{\partial t^2}, \\ (\bar{\beta}_n + 2\bar{\gamma}_n) \text{grad div} \bar{\theta}_n - (\bar{\gamma}_n + \bar{\varepsilon}_n) \text{rot rot} \bar{\theta}_n + 2\bar{\alpha}_n \text{rot} \bar{u}_n - 4\bar{\alpha}_n \bar{\theta}_n + \bar{Y}_n = j_n \frac{\partial^2 \bar{\theta}_n}{\partial t^2}. \end{cases} \quad (10)$$

bunda

$$\begin{aligned} \bar{\lambda}_n f(t) &= \lambda_{n0} \left[1 - \Gamma_{n\lambda}^{(c)} - i\Gamma_{n\lambda}^{(s)} \right] f(t), \quad \bar{\mu}_n f(t) = \mu_{n0} \left[1 - \Gamma_{n\mu}^{(c)} - i\Gamma_{n\mu}^{(s)} \right] f(t), \\ \bar{\alpha}_n f(t) &= \alpha_{n0} \left[1 - \Gamma_{n\alpha}^{(c)} - i\Gamma_{n\alpha}^{(s)} \right] f(t), \quad \bar{\beta}_n f(t) = \beta_{n0} \left[1 - \Gamma_{n\beta}^{(c)} - i\Gamma_{n\beta}^{(s)} \right] f(t), \\ \bar{\gamma}_n f(t) &= \gamma_{n0} \left[1 - \Gamma_{n\gamma}^{(c)} - i\Gamma_{n\gamma}^{(s)} \right] f(t), \quad \bar{\varepsilon}_n f(t) = \varepsilon_{n0} \left[1 - \Gamma_{n\varepsilon}^{(c)} - i\Gamma_{n\varepsilon}^{(s)} \right] f(t). \end{aligned}$$

Yuqorida olingan kompleks koeffitsiyentli differensial tenglama xususiy hosilali kompleks koeffitsiyentli differensial tenglamalar sistemasiga olib kelib, analitik yechiladi. Bu dissertatsiyada analitik yechish usuli ishlab chiqarilgan. (10) tenglamani umumiy yechimini quyidagi ko'rinishida izlaymiz

$$\bar{u}_n(x, z, t) = \bar{U}_n(z) e^{i(kx - \omega t)}, \quad \bar{\theta}_n(x, z, t) = \bar{\Omega}_n(z) e^{i(kx - \omega t)} \quad (11)$$

bunda $\bar{U}_n(z), \bar{\Omega}_n(z)$ - ko'chish va moment amplitudasi, vektor kattalik hisoblanadi. Agar (11) ni (10) tenglamaga qo'ysak va hajmiy kuchlarni hisobga olmasak, u holda kompleks koeffitsiyentli oddiy differensial tenglamalar sistemasini olamiz

$$\begin{cases} (2\bar{\mu}_n + \bar{\lambda}_n) \text{grad div} \bar{U}_n - (\bar{\mu}_n + \bar{\lambda}_n) \text{rot rot} \bar{U}_n + 2\bar{\alpha}_n \text{rot} \bar{\Omega}_n + \rho_n \omega^2 \bar{U}_n(z) = 0, \\ (\bar{\beta}_n + 2\bar{\gamma}_n) \text{grad div} \bar{\Omega}_n - (\bar{\gamma}_n + \bar{\varepsilon}_n) \text{rot rot} \bar{\Omega}_n + 2\bar{\alpha}_n \text{rot} \bar{U}_n - 4\bar{\alpha}_n \bar{\Omega}_n + j_n \omega^2 \bar{\Omega}_n = 0. \end{cases} \quad (12)$$

bu yerda

$$\begin{aligned} \bar{u}_n(x, z, t) &= \bar{U}_n \{ U_x(z), U_y(z), U_z(z) \} e^{i(kx - \omega t)}, \\ \bar{\theta}_n(x, z, t) &= \bar{\Omega}_n \{ W_x(z), W_y(z), W_z(z) \} e^{i(kx - \omega t)}. \end{aligned} \quad (13)$$

Agar (13) ni (12) ga qo'ysak quyidagicha oddiy differensial tenglamalar sistemasini olamiz. Yuqorida keltirilganlardan foydalanib $U_n(z), W_n(z)$ - yechimlarni ham yozishimiz mumkin bo'ladi

$$\begin{aligned} U_x(z) &= ikE_0 e^{-\eta_0 z} + E_1 \eta_1 e^{-\eta_1 z} + E_2 \eta_2 e^{-\eta_2 z}, \\ U_y(z) &= \frac{B-1}{2A^2 B} \left\{ D_1 \left(x_1 - \frac{\omega^2}{C_4^2} + \frac{4A^2 B}{B-1} \right) e^{-\xi_1 z} + D_2 \left(x_2 - \frac{\omega^2}{C_4^2} + \frac{4A^2 B}{B-1} \right) e^{-\xi_2 z} \right\}, \\ U_z(z) &= \eta_0 E_0 e^{-\eta_0 z} + irE_1 e^{-\eta_1 z} + ikE_2 e^{-\eta_2 z}, \\ W_x(z) &= ikD_0 e^{-\xi_0 z} + D_1 \xi_1 e^{-\xi_1 z} + D_2 \xi_2 e^{-\xi_2 z}, \\ W_y(z) &= \frac{B}{2} \left\{ E_1 \left(x_1 - \frac{\omega^2}{C_3^2} \right) e^{-\eta_1 z} + E_2 \left(x_2 - \frac{\omega^2}{C_3^2} \right) e^{-\eta_2 z} \right\}, \\ W_z(z) &= ikD_0 e^{-\xi_0 z} + ikD_1 e^{-\xi_1 z} + ikD_2 e^{-\xi_2 z}, \end{aligned} \quad (14)$$

bunda

$$\eta_0 = \sqrt{k^2 - \frac{\omega^2}{C_1^2}}, \quad \xi_0 = \sqrt{k^2 + \frac{4A^2 B C_4^2}{(B-1)C_5^2} - \frac{\omega^2}{C_5^2}},$$

$$\eta_1 = \xi_1 = \sqrt{k^2 - x_1}, \eta_2 = \xi_2 = \sqrt{k^2 - x_2},$$

$$x_{1,2} = \frac{C_3^2 + C_4^2}{2C_3^2 C_4^2} \omega^2 - 2A^2 \pm \sqrt{\frac{(C_3^2 - C_4^2)^2}{4C_3^4 C_4^4} \omega^4 - \frac{2A^2(C_2^2 C_3^2 - 2C_3^2 C_4^2 + C_2^2 C_4^2)}{C_2^2 C_3^2 C_4^2} \omega^2 + 4A^4}.$$

Olingan yechim asosida Kossera muhitida erkin to‘lqin tarqalishi yoki majburiy (statsionar yoki garmonik, noturg‘un) to‘lqin tarqalishi masalalari yechiladi. Uchinchi paragrafda tekis qatlamlardan tashkil topgan qovushqoq elastik dissipativ to‘lqin o‘tkazgichlarda to‘lqin tarqalishi masalasini qo‘yilishi va yechilish metodikasi keltirilgan. To‘rtinchi paragrafda ko‘p qatlamli Kossera muhitidan iborat konstruksiyalarda Dispersion munosabatni topish va sonli natijalar olishning umumiy algoritmi keltirilgan. Masalalarni qo‘yilishi, yechish metodikasi va algoritmi bo‘yicha xulosalar qilingan.

Dissertatsiyaning **“Qovushqoq-elastik Kossera muhitidan iborat yarim tekisligida sirt to‘lqinlarini tarqalishi”** deb nomlangan uchinchi bobda qovushqoq-elastik Kossera muhitida sirt to‘lqinlarini tarqalishi masalalari yechiladi, sonli natijalar olinib tahlil qilinadi. Asosan Reley, Stounli va Lemb to‘lqinlarini tarqalishini ko‘rib chiqamiz. Dispersion tenglama analitik ko‘rinishda olinadi. Muhit qovushqoq-elastik bo‘lganligi uchun dispersion tenglamadagi noma’lumlar kompleks kattalik bo‘ladi. Kompleks parametrli transendent tenglama Myuller va Laplas usullari asosida sonli yechiladi. Kossera muhitida to‘lqin tarqalishi uchun olingan natijalar klassik elastiklik nazariyasida olingan yechimlar bilan solishtirilgan. Bu bobning birinchi paragrafida qovushqoq-elastik Kossera muhitida sirt Reley to‘lqinlarini tarqalishi xususiyatlari o‘rganilgan. Yarim tekislik chegarasi kuchlanishlardan ozod qilingan bo‘lsin, u holda

$$\sigma_{zx}|_{z=0} = 0, \sigma_{zy}|_{z=0} = 0, \sigma_{zz}|_{z=0} = 0, \mu_{zx}|_{z=0} = 0, \mu_{zy}|_{z=0} = 0, \mu_{zz}|_{z=0} = 0, \quad (15)$$

Agar yuqorida olingan (14) umumiy yechimdan va (15) chegaraviy shartlardan foydalansak quyidagi ko‘rinishdagi bir jinsli kompleks koeffitsiyentli algebraik tenglamalalar sistemasini olamiz. U yechimga ega bo‘lishi uchun uni asosiy aniqlovchisi nolga teng bo‘ladi.

$$\det \left[M_p(p_1, p_2, p_3) \right] = \begin{vmatrix} 2k^2 - \frac{\omega^2}{C_2^2} & -2ikp_2 & -2ikp_3 \\ 2ikp_1 & 2k^2 - \frac{\omega^2}{C_2^2} & 2k^2 - \frac{\omega^2}{C_2^2} \\ 0 & p_2(A_m - \frac{\omega^2}{C_3^2}) & p_3(A_p - \frac{\omega^2}{C_3^2}) \end{vmatrix} = 0,$$

$$\det \left[M_t(p_1, p_2, p_3) \right] = \begin{vmatrix} \frac{2ik}{1-B} & p_2(2 + \frac{A_m C_4^2 - \omega^2}{2A^2 C_4^2}) & p_3(2 + \frac{A_p C_4^2 - \omega^2}{2A^2 C_4^2}) \\ ikp_1(1+C) & p_2^2 + k^2 C & p_3^2 + k^2 C \\ (\frac{C_5^2}{C_4^2} - C - 1)k^2 - p_1^2 \frac{C_5^2}{C_4^2} & ikp_2(1+C) & ikp_3(1+C) \end{vmatrix} = 0$$

Bu yerda C - o‘lchamsiz parametr, $C = \frac{\gamma - \varepsilon}{\gamma + \varepsilon}$. Birinchi tenglamadan to‘lqin soni va

chastota orasidagi munosabatni olamiz $k(\omega)$. Agar Dispersion tenglama ochib yozilsa, u holda quyidagi tenglamani olamiz.

$$\sqrt{k^2 - x_1} \left(x_1 - \frac{\omega^2}{C_3^2} \right) \left((2k^2 - \frac{\omega^2}{C_2^2})^2 - 4k^2 \sqrt{k^2 - x_2} \sqrt{k^2 - \frac{\omega^2}{C_1^2}} \right) - \sqrt{k^2 - x_2} \cdot \left(x_2 - \frac{\omega^2}{C_3^2} \right) \left\{ (2k^2 - \frac{\omega^2}{C_2^2})^2 - 4k^2 \sqrt{k^2 - x_1} \sqrt{k^2 - \frac{\omega^2}{C_1^2}} \right\} = 0. \quad (16)$$


Bu tenglama Reley tenglamasi hisoblanadi. Dispersion tenglamani ikkinchisi soddalashtirilsa (u_y, θ_x, θ_z ko'chish komponentalari uchun) olingan tenglama ko'chish va buralish koeffitsiyentlari orasidagi munosabat beradi

$$E_1 = \frac{i(\omega^2 - 2k^2 C_2^2)(\omega^2 - x_2 C_3^2)}{2k C_2^2 C_3^2 (x_1 - x_2) \eta_1} E_0, E_2 = \frac{i(\omega^2 - 2k^2 C_2^2)(\omega^2 - x_1 C_3^2)}{2k C_2^2 C_3^2 (x_1 - x_2) \eta_2} E_0.$$

Bulardan foydalanib yarim tekislik nuqtalarini ko'chishi va buralishini topish mumkin bo'ladi. Hisoblashlarda yadro relaksatsiyasi uchun uch parametrlilik kuchsiz singulyar xossaga ega bo'lgan Rjanitsin-Koltunov yadrosi $R(t) = A e^{-\beta t} / t^{1-\alpha}$ dan foydalanilgan, bunda A, α, β - materiallarni reologik xossalarini ifodalovchi parametrlardir. Hisoblashlar uchun quyidagi parametrlar qabul qilingan:

$$A = 0.048, \beta = 0.05, \alpha = 0.1, \gamma = 1.936 \times 10^8 N, \\ \varepsilon = 3.046 \times 10^9 N, j = 10^3 kg / m^3, \lambda_0 = 2.8 \times 10^8 N / m^2, \\ \mu_0 = 4 \times 10^9 N / m^2, \rho = 10^5 kg / m^3, \alpha = 4 \times 10^9 N / m^2$$

Dispersion tenglamani ildizini topish uchun argumentga qiymat berib funksiyani absissa o'qi bilan kesishish nuqtasini topamiz. Faza tezligini mavhum qismi uchun zaperaniya (yutilish) ro'y bermasligi topildi. Yarim Kossera qovushqoq-elastik muhitda Reley to'liqini tarqalishida faza tezligini haqiqiy qismini (C_{ReR}^*) chastotaga bog'liq o'zgarishi 3-rasmda keltirilgan.




3-rasm. Kossera qovushqoq - elastik muhitda Reley to'liqini tarqalishida faza tezligini chastotaga bog'liq o'zgarishi

